XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV

# MUNGLI KO‘ZLAR

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2010

Ota-onaga farzandining baxtidan bo‘lak ne’mat kerak emas. Xuddi shuningdek, farzand ham eng baxtiyor damlarida ota-ona yonida bo‘lgisi, baxtini ular bilan baham ko‘rgisi keladi. Ota-ona diydori, ota-ona mehrini ular har narsadan aziz biladilar.

Qimmatli kitobxon! Sevimli yozuvchimiz Xudoyberdi To‘xtaboyevning siz, aziz kitobsevar do‘stlarimiz uchun taqdim etilayotgan mazkur kitobida ana shu mavzu qalamga olingan. Asarning yozilganiga oradan ancha fursat o‘tgan bo‘lishiga qaramay, u badiiy qimmatini hamon yo‘qotmagan, aksincha, har bir kitobxon ushbu asarni har gal qo‘liga o‘zgacha mehr va iztirob bilan oladi.

Mol-dunyoni har narsadan ustun bilgan va oxir-oqibatda guldek farzandlarining achchiq qismatiga sabab bo‘lgan ota-ona haqida hikoya qiluvchi mazkur asar umid qilamizki, yana bir karra o‘zining yangi o‘quvchilarini kashf etadi.

ISBN 978-9943-08-565-7
© Xudoyberdi To‘xtaboyev, «Mungli ko‘zlar». «Yangi asr avlodi», 2010-yil

Kitobxon.Com

# G‘AROYIB SALTANAT

Bora-bora tog‘u toshlar cho‘kishi, daryoyu ko‘llar qurishi, yam-yashil o‘rmonlar o‘tinlar uyumiga aylanishi, zo‘ravonlik bilan paydo bo‘lgan davlatlar yemirilishi mumkin. Lekin bolalik deb atalmish g‘aroyib saltanat borki, u zinhor zavol ko‘rmaydi, sinalgan qonun-qoidalari asosida yashayveradi. Avvalo, u zamon, makon, irq, din, jins tanlamaydi. Ikkinchidan, bolalik saltanati maxluqotu mavjudot bilan hamisha, keng ko‘lamli aloqada bo‘ladi. Maymun, masalan, baland daraxtning uchiga chiqib, yerdagi raqibiga banan yog‘dirishi, ona-sher, bolalari qatori, o‘zga maxluqot rezgisini bag‘riga bosishi, yalab-yulqashi, yovuz odamdan alamzada bo‘lgan bo‘ri undan qasd olishga chog‘lanishi, ilonlar noyob xazinani ziyrak posbonday qo‘riqlashlari, mehribon inson lat yegan hayvon, parranda, darrandani uzoq muddat davolashi mumkin. Uchinchidan, g‘aroyib saltanatda odam bolasi ayiq, itdan hid olish mahoratini, tulkidan makr-hiyla asrorini, sheru yo‘lbarsdan ulug‘vor tajovuzkorlikni; qo‘zidan ma’sumlikni, bulbuldan zavq-shavqni o‘rganishi mumkin. To‘rtinchidan, bu g‘aroyib saltanatda turli-tuman aloqalar davom etaveradi. Odam, xohlasa, narigi dunyoga, xohlasa, insu jinlar, dev-parilar makoniga, xohlasa, osmoni falakka, o‘zga sayyoralarga sayr qilishi tabiiy hol. Bu saltanatda dov-daraxt, maxluqot, changalzorlar, daryoyu dengizlar bir yoqadan bosh chiqarib, yovuzlikka qarshi bosh ko‘tarishi, go‘zal qizlar ta’viya maxluqlarga aylanib, narsa, hodisalar asl mohiyatidan tashqari kutilmagan vazifalarni bajarishi mumkin. Chaqmoqtosh, sehrli chiroq (qalpoqcha, tayoqcha, kovush, sandiq, xum), duldul ot, chaqimchi chumchuq haqidagi yuzlab asarlar hamisha diqqatni jalb etib kelgan. Kompyuter, uyali telefonlar g‘aroyib saltanatni yangi mavzu, qahramon, imkoniyatlar bilan boyitdi. Xullas, bu saltanatning tub ildizi, mustahkam suyanchig‘i xalq og‘zaki ijodidir. Muhimi, g‘aroyib saltanat xayolot dunyosi kengliklarini bemalol kezishi mumkin. Unda shartlilik, ramziylik, sayohat, xayolotga katta erk beriladi. Uning ajoyibotlari bolalar adabiyoti deb ataladigan



Kitobxon.Com

mo‘jizaviy sohada o‘z ifodasini topadi.

Bolani azal-azaldan podshoga mengzaydilar. Bolalik uy bozorligini, unda sir yotmasligini aytadilar. Farzand ko‘rishni — oilasiga kichkina quyosh kirib kelishini orzulamaydigan odam topilmaydi. Bola — quvonch. Bola — bebaho ne’mat. Bola — tilsim. Ziyrak odamlar chaqaloqqa zehn solib, uning qanday inson bo‘lishini bilib oladilar. Bo‘ladigan bolaning o‘nlab belgilari ilmiy, badiiy adabiyotda aniq-ravshan sanab berilgan. Bola, misoli, sirli qulf. Unga tushadigan kalit bolaning qiliqlari, naridan-beri aytib yurgan gaplarida ko‘rinib qoladi.

Bolalar adabiyotining yetuk asarlarida duldul otlarnikiday qirq qulochli qanot bo‘ladi, shekilli-da: ular yurtlardan yurtlarga uchib yuradilar, o‘nlab tillarga tarjima qilinadilar, millionlab qalblarni zabt etadilar. Bolalar adabiyotining qahramoni avvali-oxir xayolparast bo‘lgan, yetti qavat osmonda kezgan. Kattalar «yaxshidir achchiq haqiqat», desalar, bolalar «lek shirin yolg‘on undan qolishmaydi», degan ishonch bilan yashaydilar. Shirin yolg‘on manbai — ertakdir.

Bolalar adabiyotining deyarli hamma qahramonlari hangomatalab, sarguzasht oshig‘i, sayohat fidoyisi. Xudoyberdi To‘xtaboyevning Hoshimjon, Akrom, Orifjoni Tom Soyyor (Mark Tven), Maugli (Kipling), Chippolina (Janni Rodari), Jelsomino (Janni Rodari), Gulliver (Svift) singari sayohat, sarguzashtlarni sevadi.

Bolalar adabiyotining g‘aroyib qahramonlari chaqmoqtosh, sehrli tayoqcha (qalpoqcha, mantiya, kalit, boyo‘g‘li)dan unumli foydalanadilar. Ular bitta odamning turli mohiyat, holatlarini kashf etadilar.

Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida sehrgarlik anjomlari, sehr yo‘sinlari milliy betakrorlikda, o‘zbekona muhitda aks ettiriladi. Ikkinchidan, X.To‘xtaboyevning «Sehrli qalpoqcha», «Sariq devni minib» asarlari yaratilganda jahon adabiyotida Hoshimjon singari sehrli qalpoqchaga ega, o‘ta qaltis muammolarni zumda hal qilib tashlaydigan qahramon yo‘q edi. «Shirin qovunlar mamlakati...»dagi Akrom bilag‘onni aytmaysizmi? Folklorda, yozma adabiyotda ko‘z jodusi, oyoq mo‘jizasi, qo‘llar asrori haqida asarlar ko‘p edi-yu, ammo hid biluvchi burunning karomatlari hech qayerda ko‘rsatilmagandi. X.To‘xtaboyev Akromning hid biluvchi burnidan yumor manbai sifatida foydalanadi. Muhimi, g‘aroyib fazilatli burni



Kitobxon.Com

tufayli qahramonimiz katta bir afsonaviy mamlakatning qahramoni darajasiga ko'tariladi. Jahon adabiyotidagi kichik qahramonlarga mushtarak fazilatlari tufayli yozuvchining asarlari o'z kitobxonlarini tez topib bormoqda. O'tgan yillar ichida X.To'xtaboyev asarlari Toshkent, Moskva, Tallin, Vilnyus, Kiyev, Buxarest, Berlin, Sofiya, Dushanbe, Ashxobod, Boku, Yerevanda bosildi. Uning kitoblari bugungi kunda chex, norveg, fin, fransuz, turk, italyan, qozoq tillarida nashr etildi. Shu kunlarda ham X.To'xtaboyev asarlari jahon xalqlari tillariga ko'plab tarjima qilinmoqda.

Yozuvchi asarlari jahonda chop etilyaptimi, demak, ular o'qilmoqda. Afsuski, o'zbek adabiyotshunosligida yozuvchi reytingi masalasiga e'tibor berilmaydi. Vaholanki, reyting o'ziga xos ko'zgu, ko'rsatkich: yozuvchi asarlarining umumiy adadi qancha, necha tilga tarjima qilingan, qaysi asari eng mashhuru qaysi asari zaifroq, qaysi qit'a, mamlakatda yozuvchi asari ko'p o'qiladi... Bir fikrni qat'iy, ishonch bilan aytish mumkin: Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarini o'zbekning uch avlod kitobxoni qunt, qiziqish bilan o'qidi. «O'tgan kunlar», «Sarob», «Shum bola»dan keyin «Sariq devni minib» eng ko'p o'qilayotgan asarlardan biri deyish mumkin.

Xudoyberdi To'xtaboyev ijod qila boshlaganidan beri zamon, tuzum, mafkura, adabiy-estetik qarash o'zgardi. Lekin yozuvchi salkam ellik yillik ijodi davomida qanday roman, qissa yozgan bo'lsa, ularga bo'lgan qiziqish susaymadi. Chunki yozuvchi hamisha tirik insonni, o'z «men»i, yo'l-yo'siniga ega odamni tasvirlagan edi.

Odatda, mashhur asarlar yombiday yaxlit, birdan paydo bo'ladi. Xudoyberdi To'xtaboyev romanga so'nggi nuqtani qo'yish uchun ko'p izlandi, misoli igna bilan quduq qazidi. Yozuvchi tinimsiz izlandi. Qidirayotgani xalq og'zaki ijodi xazinasida ekanligini qalbidan his etdi. Doston, ertak, topishmoqlarni qayta-qayta o'qidi. Bola-bola-da! U toqqa chiqmay do'lanali bo'lishga, kon qazimasdan xazina topishga, o'qimasdan obro'-e'tibor qozonishga, aqlni peshlamasdan raqiblarini yer bilan yakson qilishga intiladi. Ha, bola — o'smir sirli, sehrli narsani topishi kerak. «Sariq devni minib»da voqealar ko'p, ularni hikoya qilib berish yo'sini bor. Hoshimjon ham roviy, ham voqealar ishtirokchisi. U voqea-hodisalarni maromiga yetkazib, o'zigagina xos tilda so'zlab beradi (yozuvchi vazifasini bajaradi).

Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib», «Shirin

qovunlar mamlakati», «Mungli ko‘zlar» romanlarida sarguzashtlar ko‘p. Sarguzasht — insonning hayot girdobida uzluksiz harakat qilishi, maqsad yo‘lidagi kurashishi. Hoshimjon, aytilganiday, mashhurlik izlab sarguzasht boshlaydi. Uning Uzun quloq pirim ziyoratgohidagi, militsiya xodimlari bilan Sariq devni mahv etishdagi sarguzashtlari ham qiziqarli, ham murakkab, ham ma’rifiy. Akromning g‘aroyib sarguzashtlari-chi? Ular Hoshimnikidan ortiq bo‘lsa borki, kam emas. Zafar mushtdayligidan hayot ziddiyatlari, murakkab sinovlar sarguzashtini boshidan kechirdi. Qahramonlar sarguzashtini qiziqarli, jonli tasvirlash X.To‘xtaboyev asarlarining asosiy maqsadimi? Yo‘q, albatta. Uchta romanda poetikaning mohiyati anglashiladi. Badiiy asar poetikasi deganda voqea-hodisa, qahramonlarning badiiyat olamidagi hayoti, intilishi, kurashi tushuniladi. Anig‘i, poetika — badiiy asarning yashash tarzi, undagi ruhiy harakat, mazmun-mohiyat demak. X.To‘xtaboyevning yozuvchi sifatidagi iste’dodi, uquvi shundaki, u matn ostiniginamas, matnning kitobxon olamida jilolanadigan qiyofasini, ruhiy hayotini, tusini, turini aks ettira olgan. Mana shu kontekst — matnning badiiy in’ikosini ochib berish — yozuvchi mahorati haqida fikr yuritishdir. Xudoyberdi To‘xtaboyev uchta romani orqali o‘zbekning asl mohiyatini, XX asrning II yarmidagi ijtimoiy-ma’naviy-ruhiy hayotning badiiy tarixini ishonarli ochib bergan. Yozuvchi Hoshimjon, Akrom, Zafarning dunyoga kelishida vosita bo‘lgan ota-ona, o‘zbekning saxiy, orzu-havasli, g‘ururli, to‘ysevar, ishonuvchan, qonunni bilmaydigan, olomonsifat, bolajon bo‘lgani bilan uni qanday tarbiya qilish yo‘riqlarini anglab yetmaganligi ekanligini ko‘rsatadi. Badiiy asarda shartlilik, ramziylik bo‘ladi. Yozuvchi, deylik, Hoshimning soxta agronom, muhandis, artist bo‘lganini ko‘rsatmoqchi. Tabiiyki, u shartlilikdan, sehrli qalpoqchadan foydalanadi. Hoshimjon bironta rivojlangan yurtda na muhandis, na agronom bo‘la olardi. Hamma yerda hujjat (diplom) talab qilinadi. Qarang, qorovul Polvontog‘a tavsiyasi bilan sovxoz direktori Hoshimni agronomlikka oladi. Bu ishga joylashishning «o‘zbekona usuli», xolos. Akrom («Shirin qovunlar mamlakati...») odamlar olti-yetti yuzta kosa, likobcha, choynak, piyola olib kelayotganini kuzatadi. Bu — bor gap edi. Ba’zilar katta bir to‘yni o‘tkazishga yetadigan choynak-piyola, kosa-lagan, hatto guldonlarni g‘amlab qo‘yganlar. Bunday g‘aroyib saxiylikni Matmusa o‘zbek

qilishi mumkin, xolos. Zafarning («Mungli ko‘zlar») ota-onasi pul, oltin yig‘adi. Muhimi, ular boyiganlari sayin o‘zlarini boshqara olmay qoladilar. Bebiliska topilgan pullar oilaga kulfat, baxtsizlik, fojia olib keldi. Yoqutxon, Saidlarning pul-boyliklari do‘st-dushmanni tanib olishda o‘ziga xos mahaktosh vazifasini o‘tadi: Yoqutxonning qadrdon ulfatlaridan Qo‘mondon, Qozi xolalar eng tuban firibgar, muttahamning ishini qiladilar.

Xudoyberdi To‘xtaboyev 300 dan ortiq felyeton yozgan. Odatda, feleton jamiyat, jamoa manfaatlariga zid borganlar haqida yoziladi. Har qanday jamiyatda umumga zid borganlar, qonunni buzganlarga qarshi kurashadigan mahkamalar bo‘ladi. Ko‘zim tushgan, X.To‘xtaboyev militsiya tashkilotlaridan, qonun himoyasi organlaridan ko‘plab tashakkurnomalar, nishonlar olgan. Yozuvchi «Sariq devni minib», «Mungli ko‘zlar» romanlarida militsiya xodimlari obrazini ishonarli yaratgan. O‘smirlarning qadrdon qahramoni Hoshimjon Ro‘ziyev militsiya serjanti sifatida dostonlardagiday ishlarni amalga oshiradi. Demak, X.To‘xtaboyev Sariq dev, Iblis deganda qonunbuzarlarni, o‘g‘ri-muttahamlarni, tovlamachi-poraxo‘rlarni nazarda tutgan.

E’tibor bering, X.To‘xtaboyev qaysi asarida qonun himoyachilari va qonunbuzarlar haqida yozsa, qalami erkin harakat qiladi. Chunki yozuvchi jurnalistlik kasbi tufayli qaltis holat, vaziyatlarni kuzatgan. Felyetonnavislik – qonunga suyanib ish yuritish yozuvchi tabiatiga singib ketgan.

X.To‘xtaboyev mahorati ijobiy va salbiy kuchlarni uyushtira olganligida, ular aro kurashning borishini tasvirlashida seziladi. Shu o‘rinda yozuvchi tutgan yo‘ldagi bir norasolikni ko‘rsatib o‘tish joiz. «Shirin qovunlar mamlakati...» — bolalar adabiyoti namunasi, yetakchi bolalar yozuvchisining pishiq asari. Bolalar adabiyoti, bolalar romanimi, demak, unda bolalar harakat qilishi, bolalar ruhiga yaqin masalalar qo‘yilishi lozim. Akrom Dar Daraja bilan Iblisga qarshi kurashadi. Iblis kattalarning buzuq qonidan paydo bo‘lgan. Nega Akrom atrofiga ikki-uch o‘smir qahramonni qo‘yish yoxud Iblisdagi qonlar qatoriga bolalar olamining illatlarini kiritish mumkin emasdi?

Iblisga qarshi kurashish, bu yo‘lda turli vositalardan foydalanish Joan Roulingning Garri Potter haqidagi kitoblarda ko‘zga aniq tashlanadi. Akrom Iblisga qarshi aql bilan kurashish yo‘lini tanlaydi,

har xil fizikaviy, kimyoviy, biologik, genetik usullardan foydalanadi. Hozirgi yoshlar bolalar adabiyotidagi intellektual qahramonlarni yoqtiradilar. Garri, Germiona, Ron singarilar raqibga qarshi uzoqni o'ylab kurashadilar. Shu nuqtai nazardan Akrom ham yoshlarning sevimli qahramoni. Unda izchil maqsad, kurash usuli, vositalari bor. Ustiga-ustak X.To'xtaboyev kurashning o'ta nozik yo'llarini ko'rsatib boradi. Aqllar, hiylalar kurashi birinchi o'ringa chiqadi. Biz qancha kitobxon bilan suhbatlashgan bo'lsak, Akrom X.To'xtaboyev ijodidagi pishiq, aql-hushli kurashchilardan biri ekanligini aytdi. To'g'ri, Jamila kelinoyi haqida yolg'on to'qib tashlagan, «Fanga yurish»ni «Panaga yurish» tarzida talqin qilgan Akromning har xil asbob-uskunalardan mohirona foydalana ola boshlagani orasida nomutanosiblik bor. Romanning fantastik, xayoliyligi ko'p masalalarga o'zgacharoq qarashga undaydi.

Garri Potter, garchi u ham xayolot olamida kezsa-da, yangi-yangi texnik vositalardan foydalanadi: uning sehrgarlik uskunalarining mo'jizaviy imkoniyatlarini ocha bilishi hozirgi o'smirlarda qoniqish tuyg'usini vujudga keltiradi. Muhimi, Garri Potter sheriklari, ularning raqiblari tartibga tushgan osoyishtalikni ayqash-uyqash qilib yuborishdan huzurlanadilar. Ya'ni, Rouling xonim bola tabiatidagi buzish-yorishga bo'lgan ehtiyojni amaliy ishlarda ko'rsatib beradi. X.To'xtaboyevning Hoshimi, Akromi, Sultonu Zufarida kattalar o'ylab topgan, amalga oshirgan tartibotlarga qarshi allaqanday norizolik bor. Ehtimol, o'smirning beg'ubor ko'ngli poraxo'rlik, to'rachilik, munofiqlik, buqalamunlik, laganbardorlik singari kasofatlar paydo bo'ladigan muhitni avvaldan his qilar. Aslida, X.To'xtaboyevning deyarli barcha qahramonlari yomonlikka, zulmga, nohaqlikka qarshi sidqidildan kurashadilar.

Yana bir gapni aytish kerak, Hoshim, Akromlar kitobxonga tanilib, Yevropaga chiqib borgan paytida hali Garri Potter yo'q edi. Ehtimol, Hoshim, Akrom singari o't-olov qahramonlar Garrilarning paydo bo'lishida turtki bo'lgandir.

*Abdug'afur RASULOV,*
*filologiya fanlari doktori, professor*

*BIRINCHI QISM*

# JINOYAT

## I BOB

Achchiq taqdirim, goho charaqlagan, goho bulutli o‘tgan kunlarim haqida so‘rayapsizmi, sizga bularning hech hojati yo‘q-ku yoki suhbat borasida dilimdagi mayda-mayda qora tugunchalardan, yelkamdan tog‘dek bosib turgan g‘am yuklaridan qutulib olishimni istayapsizmi? Bilib turibman, menga rahmingiz kelyapti, achinyapsiz. Yo‘q, menga achinishlarini hecham istamayman, ilgari istasam ham endi istamayman. Kech bo‘ldi. O‘zlari loyqa to‘la iflos chuqurga itarib yuborishadi-da, “voy o‘lmasam, kiyim-boshlaring loy bo‘pti-ya, kelaqol, yuvib, tozalab beraman”, deyishadi.

Shuyam gap bo‘pti-yu, shuyam mehribonlik bo‘pti-yu!

Ha, men 16 yoshimda qamoqqa tushib qoldim. Qamalishim kerak edi. Mana, qamadilar. Turgan gapki, jinoyatni birovlar qilib nega endi seni qamadilar, bu qanaqa qonun bo'ldi, deb so'rarsiz. Iltimos, qonunni tinch qo'yaylik. Qonunlar adolatli, ularning adolatli ekanligini mana shu yerda, goh qorong'u, goh zax xonalarda yotgan hamxonalarim ham yaxshi bilishadi. Bu xususda hammamizning fikrimiz bir. Siz qonun ijrochilari, himoyachilari, targ'ibotchilari haqida gap ochsangiz boshqa edi, tilingizdan o'pgan bo'lardim. Yo'q, men jinoyatchi edim, jazolanishim shart edi. Lekin... Lekinlar haqida keyinroq gaplasharmiz. O'shanda adolatli hukm chiqarishni o'zingizga havola qilaman.

Hammasini boshidan boshlay qolay. Axir ashulani o'rtasidan aytishmaydi-ku. Siz uchun kuylamoqchi bo'lgan g'amgin qo'shig'imizning boshlanishi oxiridan ham g'amginroq. Xohlasangiz tinglarsiz, xohlamasangiz ixtiyor o'zingizda.

Xonadonimizga qo'shaloq baxtsizlikning qora bulutdek yopirilib, bo'rondek dahshat bilan bostirib kelishi to'qqizinchi iyunga to'g'ri keldi. Esingizdan chiqmasin – to'qqizinchi iyun deyapman. Men o'sha kuni behad xursand, ehtimol baxtli ham edim. Sakkizinchi sinfni bitirayotgandim. Ona tilining yozma-og'zakisidan, algebra-yu geometriyadan yaxshi baholar oluvdim. So'nggi imtihon rus tilidan edi. Undan ham bahoim yaxshi bo'ldi, eshityapsizmi, yaxshi deyapman. Men hech qachon a'lochi bo'lgan emasman. Hamisha o'rtadan yuqori, a'lodan pastroq baholar olganman. To'g'ri, Ilhom, Manzura singari sinfdoshlarimga o'xshab a'lochi bo'lishni, suratim ilg'orlar doskasiga osilishini, majlislarda mening ham nomim o'shalar qatorida tilga olinishini pinhona orzu qilardim. Lekin, menda quntmi, iqtidormi, xotira quvvatimi – bilmayman, xullas, nimadir yetishmasdi. Bu esa juda-juda alam qilardi. Odam bolasi hamisha yuksaklikka intiladi, atrofdagilardan jindek yuqori bo'lishni orzu qiladi. Bilimi tufaylimi, chiroyli kiyimlari bilanmi, cho'ntagidagi puli bilanmi, birovlarga qilgan beminnat xizmati tufaylimi, ishqilib nimasi bilandir, o'zgalardan ajralib, yuqoriroq turishni orzu qiladi. Ehtimol, men xato qilayotgandirman. Lekin nima bo'lganda ham ko'nglimdan kechgan gaplarni aytyapman. Nega shunday deb o'ylashimning sababiga haligacha o'zim ham tushunmayman.

Ochig'ini aytsam, Ilhom, Manzura singari a'lochilarni, a'lochiligi,

Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
https://kitobxon.com/oz/asar/1543 saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
https://kitobxon.com/uz/asar/1543 сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
https://kitobxon.com/ru/asar/1543